ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xudoyberdiyev Elbek Eshmamatovich

Termiz iqtisodiyot servis universiteti

Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaning eksport salohiyati va undan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Xususan, eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillari, jumladan, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy eksportni rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, eksport salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

eksport salohiyati, mintaqaviy iqtisodiyot, tashqi savdo, logistika, raqobatbardoshlik, xorijiy investitsiyalar, eksportni diversifikatsiyalash, infratuzilma, ishlab chiqarish, iqtisodiy o‘sish

Bugungi iqtisodiy integratsiya sharoitida jahon xo‘jaligida faol ishtirok etish har bir davlat va uning mintaqalari uchun ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda eksport salohiyatini oshirish va undan samarali foydalanish muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Chunki eksport hajmining ortishi nafaqat tashqi savdo balansini yaxshilaydi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga, ishlab chiqarish hajmining kengayishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Mintaqaning eksport salohiyati – bu uning tabiiy-iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, ilmiy-texnik salohiyati hamda mehnat resurslariga asoslangan holda tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish imkoniyatini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriyadir. Ushbu salohiyatdan oqilona va samarali foydalanish hududiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Eksport salohiyati quyidagi omillar orqali shakllanadi.

tabiiy resurslar (yer, suv, foydali qazilmalar);

sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanganlik darajasi;

transport-logistika infratuzilmasi;

malakali ishchi kuchi mavjudligi;

investitsion muhit.

Hududda eksport salohiyati bir qator yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

1.Sanoat mahsulotlarida.

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida.

3. Hunarmandchilik mahsulotlarida.

Shuningdek eksport salohiyati oshirish uchun logistika sohasiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Mahsulotni tez, sifatli, hamyonbob va sifatli yetkazib berish muhim hisoblanadi. Logistika orqali eksport salohiyatini oshirishning bir qator yo‘nalishlari mavjud . Bular: 1. Transport infratuzilmasini rivojlantirish.

2. Logistika markazlari va ombor tizimini yaratish.

3. Bojxona va hujjatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish.

4. (cold chain) tizimini rivojlantirish.

5. Raqamli logistika va innovatsiyalarni joriy etish.

6.Eksport logistikasida hamkorlikni rivojlantirish

Surxondaryo viloyati eksport salohiyati haqida gap ketsa, viloyatimizda eksport darajasi yuqori hududlardan biri hisoblanadi. Asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ixtisoslashgan. Viloyatda:

meva-sabzavot yetishtirish

chorvachilik mahsulotlari

to‘qimachilik sanoati

kabi yo‘nalishlar eksport uchun katta imkoniyat yaratadi. Faqatgina logistika sohasida biroz muammolar bor. Agarda viloyatimizda eksport salohiyati yanada oshirsa iqtisodiy o‘sish tezlashadi, valyuta tushumlari kengayadi, yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi, mahsulotlarga talab oshardi, hudud rivojlanadi. Logistika bu tizimning yuragi hisoblanadi. Logistikani rivojlantirish uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Natijada yuk tashish tezlashadi. Xarajatlar kamayadi. Tez va arzon yetkazib berish orqali raqabot kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
3. Jahon banki (World Bank) hisobotlari.
4. Xalqaro valyuta fondi (IMF) tahliliy materiallari.
5. Porter M. “The Competitive Advantage of Nations”. – New York: Free Press.
6. Krugman P., Obstfeld M. “International Economics: Theory and Policy”.
7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari.
8. Ilmiy jurnallar va maqolalar (iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha).